O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI PSIXOLOGIYA VA IJTIMOIY-SIYOSIY FANLAR FAKULTETI

Ro'yxatga olindi: № БД-60310100 2024 yil "10" 03		**"TASDIQLAYMAN"** SamDU rektori: _____ R.J.Xalmuradov 2024 yil "__" _____

SIYOSIY TAHLIL

FAN DASTURI

Bilim sohasi:	300 000 – Ijtimoiy fanlar, jurnalistika va axborot
Ta'lim sohasi:	310 000 – Ijtimoiy va xulq atvorga mansub fanlar
Ta'lim yo'nalishi:	60310100- Siyosatshunoslik

Mazkur fan dasturi xalqaro tan olingan reytinglarda birinchi 300 talik ro'yxatga kiruvchi **Trinity College, The University of Dublin (51-100)**ta'lim dasturi asosida tayyorlandi. (https://www.tcd.ie/Economics/undergraduate/jf/intro-economic-policy_b/index.php)

Samarqand 2024

Fan/modul kodi SIT1706	O'quv yili 2027-2028	Semestr 7	ECTS – Kreditlar 6
Fan/modul turi Majburiy fan	Ta'lim tili O'zbek		Haftadagi dars soatlari 4 soat

	Fan nomi	Auditoria mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami:
1.	SIYOSIY TAHLIL	78	102	180

II Fanning maqsadi (FM)

Fanning mazmuni

2 Fanni o'qitishdan maqsad talabalarga dunyoda kechayotgan siyosiy voqea- hodisalar va jarayonlaming mazmun-mohiyatini chuqur hamda ishonchli manbalar vositasida o'rganish, shuningdek mazkur voqea-hodisalar va jarayon I ami tahlil qilish, tegishli xulosa chiqarish hamda ulaming kelgusi holatigaoid bashoral qilish to'g'risida bilim va ko'nikma hosil qilishdan iborat.

Fanning vazifasi - nazariy bilimlar, amaliy ko'nikmalar, siyosiy tahlil va bashoratni amalga oshirishga bir qator ilmiy usullar orqali yondashish hamda tegishlicha dunyoqarashni shakllantirish, shimingdek dunyoda kechayotgan ' siyosiy voqea-hodisalar va jarayonlar mohiyatini, ulaming mazmunini tahlil qilish orqali talabalarda ularga nisbatan shaxsiy qarashni shakllantirish.

Fan mazmuni

II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)

II.I Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:

7-semistr Mashg'ulotlar shakli: ma'ruza (M) (38)

M1 **"Siyosiy tahlil" fanining mazmuni, predmeti, maqsad va vazifalari.**

Siyosiy tahlil fanning obyekti, predmeti. maqsadi va vazifalari. Siyosiy tahlil tushunchasi ma'no-mazmuni, turli xi) talqinlari. Siyosiy tahlilningjamiyat hayoti sohalarini tahlil qilish bilan aloqadorligi va unga ta'siri. Siyosat to'g'risidagi; fanlar, uning o'ziga xos xususiyatlari. Siyosiy tahlil fanini o'rganishning ahamiyati. Siyosiy tahlil haqidagi fikriar, qarashlar, ta'limotlamingpaydo bo'lishi va rivojlanishi.

M2 **Tahlil: mohiyati, tavsifi va ta'rifi.**

Tahlil (yunoncha dvaXuotq bolinish. parchalanish) o'rganilayotgan ob'yektni tarkibiy qismlarga real yoki lafakkurdagi boTinishi. sintez (yunoncha iavvOsoic - birlashtirish, biriktirish, bog'lash) esa - bu komponentlaming yaxlit ob'yektga real yoki lafakkurdagi birlashishi. Tahlilning xilma xil talqinlari. Aflotun, Arastu, R.Dekart, LKant. Dekompozitsiya, kompozitsiya. Falsafiy tahlil. i iqtisodiy tahlil, siyosiy tahlil, tizimli tahlil, qiyosiy tahlil, maTumotlar tahlili. statistik tahlil. content tahlil.

M3 **Siyosiy tahlllning shakllanishi va rivojlanishi.**

Siyosiy tahlil shakllanishining asosiy bosqichlari. Siyosiy tahlil metodologiyasining rivojlanishi. Klassik. institutsional. bixevioral va postbixevioral bosqichlar. N.Makiavellining davlat modeli, XV asrda Angliya va J Fransiya siyosiy rejimlarining J. Forteskyu, XVII asrda Sh.L. Monteskye tomonidan qiyoslanishi. A. Tokvil, D.S. Mill, K. Marks va F Engels, D. Beijes, M. Kovalevskiy, M. Veber va M. Ostrogorskiy, G. Moska va V. Pareto asarlarida siyosiy tahlil. A. Salikovskiy, D. Gellap va I. Lazarsfeld, D. Iston, G Almond va S Verba siyosiy tahlilning postbixevioral bosqichi vakillari. Siyosiy tahlil milliy maktablari. Amerika va Yevropa maktablari. O'zbek siyosiy tahlil maktabining rivojlanishi.

M4 **Siyosiy tahlil: mohiyati va turlari.**

"Political analysis" (siyosiy sohani tahlil qilish) va "policy analysis" yoki "public policy analysis" (siyosiy faoliyat, ma'lum bir siyosiy kurs tahlili). Siyosiy tahlilning nazariy va amaliy darajasi. Fundamental va amaliy siyosiy tahlil. Gorizontal va vertikal siyosiy tahlil. Muammoli tahlil, diagnostik tahlil. Deskriptiv (ex-post) va normativ (ex-ante) yondashuvlar. Siyosiy tahlilning preskriptiv (ko'rsatma), eksplikativnaya (tushuntirish), deskriptivnaya (tavsiflash) funksiyalari. Nazariy (empirik) va normativ tahlil. Strategik tahlil, resurslar tahlili.

M5 **Siyosiy vaziyat tushunchasi, mohiyati va tasnifi.**

Siyosiy vaziyat va muammo tushunchalari. Siyosiy vaziyat tushunchasini ta'riflashga oid yondoshuvlar. Muammoni tizimlashtirish. Siyosiy vaziyat tasnifi. Barqaror va beqaror, oddiy va murakkab, real, joriy va ehtimolli, maqbul va nomaqbul, xavfli va sh.k. Siyosiy risk, qarama-qarshilik, ixtilof. Siyosiy kuchlar nisbati va mutanosibligi. Siyosiy spektr.

M6 **Siyosiy tahlilda qo'llaniladigan umummantiqiy metodlar.**

Siyosiy tahlilda qo'llaniladigan umummantiqiy metodlar tasnifi. Abstraktlashtirish tadqiq etilayotgan siyosiy voqelikdagi oTganilayotgan ob'yektni tafakkurda boshqa ob'yektlar va xususiyatlaridan ajratish. Analiz yahlit siyosiy voqelik, vaziyat, ixtilof. jarayon yoki vaziyatni bosqichma-bosqish qism, bo'lak, elementlargachuqurroq o'rganish maqsadidaajratish. Sintez-awal analiz jarayonida ajratilgan ob'yektning qism, bo'lak, elementlarini tafakkurda yagona tizimga birlashtirish (tadqiqot jarayonida bu ikki usul birgalikda qo'llanilishi). Siyosiy tahlilda induksiya, deduksiya, analogiya, modellashtirish, klassifikatsiya, mantiqiylik, ideallashtirish, abstraktlikdan aniqlikka o'tish uslublarining qo'llanilishi.

M7 **Siyosiy tahlilning nazariy metodlari.**

Siyosiy tahlilning nazariy metodlari tavsifl, Sotsiologik metod nazariyotchilari E.Dyukgeym va M.Veber. Ijtimoiy va siyosiy voqelikni o'rganish va tadqiq etish jarayoni ketma-ketligi, usullari, qonuniyatlari, tamoyillari. Normativ-qadriyatiy metod siyosiy borliqni tadqiq etishda insoniy, axloqiy. qadriyatiy, me'yoriy, huquqiy mezonlar asoslanishi. Dialektik metod siyosiy jarayonlami tafakkur qilish, rivojlanish qonuniyatlarini kashf qilish va kelajagini ilmiy bashorat qilish vositasi sifatida. Antropologik, tarixiy. psixologik, faoliyatli metodlar mohiyati va siyosiy tahlilda qo'llaniiishi.

M8 **Siyosiy tahlilning empirik metodlari.**

Siyosiy tahlilda qo'llaniladigan empirik metodlar ta'rifi va tasnifi. Statistik metodlar, hujjatlar tahlili, kontent tahlil, anketali so'rov, intervyu, ekspert baholash, o'yin nazariyasi, laboratoriya experimentlari, "aqliy hujum",

	kuzatish, kognitiv xaritalash metodlari.
M9	**Siyosiy tahlilda tizimli yondashuv uslublari.** Tizimli yondashuv. Tizimli tahlilning asosiy tushunchalari. Tuzilmaviy-funksional tahlil. Tektologiya. Tizimli tahlil metodologiyasi. Tizimli tahlil tuzilmasi va vositalari. Tizimli tahlil modellari va uslublari. Siyosiy tahlilda tizimli yondashuvning qo'llanilishi. T.Parsons, DJston, G.Almond, R.Merton, N.Luman asarlarida siyosiy borliqqa tizimli yondashuv.
M10	**Siyosiy tahlilda ivent tahlil metodikasi.** Ivent tahlil metodikasining mohiyati. Siyosiy hodisani sub'yekti, syujeti, ob'yekti, sanasiga koTa tizimlashtirish. Turli siyosiy hodisalami qiyoslash, miqdoriy koTsatkichlar bilan ifodalash va hodisa miqiyosi, davomiyligi, j ishtirokchilar soni. Siyosiy hodisalar evolyutsiyasi. E.Azar banki va 13 ballii shkalasi. Ivent-tahlilning asosiy bosqichlari.
M11	**Siyosiy tahlilda kontent tahlil.** Kontent tahlil mohiyati va qo'Hanilishi. Siyosiy hujjatlaming kontent tahlili. G. Lassuel tadqiqotlarida kontent-tahlil. Siyosiy tadqiqotlar sohasida kontent- tahlil metodologiyasini qo'llash, "Stenford rejasi". Oasis avtomatlashtirilgan : tizimi, Fluent va Text Date Mining kompyuter dasturlari. Yo'naltirilgan, yo'naltirilmagan, miqdoriy va sifat kontetnl tahlili. Kontent tahlilni amalga oshirishning asosiy bosqichlari.
M12	**Siyosiy tahlilda statistik metodlar.** Statistik metodlar mohiyati va tasnifi. Statistik tadqiqotlar usullari. Statistik kuzatish, statistik kuzatish materiallarini umumlashtirish vaguruhlash, mutlaq va i nisbiy statistik kattaliklar, variatsion qatorlar, tanlov, ehtimollik, korrelyatsiya va regressiya tahlili, dinamik qatorlar. Klassifikatsiya, klasterizatsiya, reduksiya. Retropolyatsiya, interpolyatsiya va ekstropolyatsiya.
M13	**Siyosiy tahlilda qiyosiy uslubdan foydalanish.** Qiyosiy uslub mohiyati va tasnifi. Ob'yektlamingo'xshashliklari va farqlarini tizimli qiyosiy tahlil qilish. O. Kont, J.S. Mill va E. Dyurkgeym qiyosiy uslub to'gTisida. Siyosiy komparativistikaning asosiy qommiyatlari. G.Almond va S.Panel qiyosiy siyosatshunoslik to'g'risida. Qiyosiy "Case study", binar qiyoslash, parallel taqdimot uslubi, eng ko'p o'xshahshlik va farqlami topish slrategiyasi. Davlatlararo qiyoslash, hududlararo qiyoslash. Asinxron va diasinxron qiyoslash. Kross-temporal, kolleksion tahlil, kross-seksion tahlil.
M14	**Siyosiy tahlilda kognitiv xaritalash uslubi.** Kognitiv xaritalash mahiyati va tasnifi. Kognitiv xaritalash bosqichlari. Kichli va kuchsiz tomonlari. Siyosiy jarayonlarda shaxs omilini tadqiq etish. Inqirozli yoki ixt ilofli vaziyatlarda siyosiy aktor xulq-atvori xususiyatlarini o'rganish. Turli siyosatchilaming tafakkurini qiyoslagan va ulaming operativ kodini ochib bergan O.Xolsti, G.Bonham va M.Shapironing tadqiqotlari, R.Bauer, AJnkels va K.KJaxonlaming "Sovet tuzumi qanday ishlaydi" asari.
M15	**Siyosiy tahlilda modellashtirish uslubi.** Modellashtirish tushunchasining mohiyati va mazmuni. Modellaming tasnifi. Modellashtirishning bosqichlari: mantiqiy-intuitiv tahlil, formallashtirish, kvantifikatsiya. Matritsali uslub va o'yinlar nazariyasi. Braytman va Geller matritsasi. "Maxbus dilemmas!", "Xo'rozlar"

	simmetrik o'yinlari
M16	**Siyosiy tahlilda ekspert baholash metodlari.** Ekspert baholash: ta'rifi, turlari, qoMlanilishi sohalari. Ekspert baholashning jamoaviy yuzma-yuz usullari. Ekspert baholashning jamoaviy sirtqi usullari. Ssenariy usuli. "Delfi uslubi", "Breynstorming"(aqliy hujum), sinoptik metod, sinektik metod. Komissiya uslubi. PATTERN uslubi. SWOT tahlil
M17	**Strategik tahlil va siyosiy jarayonlarni prognoz qilish.** Strategik tahlil tushunchasi mohiyati va tasnifi. Strategik tahlilning maqsadi, ob'yekti va vositalari. GAP-tahlil, CVP-tahlil, STEP, PEST, ABC tahlil. Siyosiy jarayonlami strategik tahlil qilish darajalari. Xalqaro, milliy, regional va mahalliy. Siyosiy jarayonlami strategik modellashtirish va strategik ssenariylar tuzish.
M18	**18-Mavzu: Siyosiy tahlilning darajalari.** Siyosiy tahlilning mikro, mezo, makro, mega darajalari. Siyosiy tahlil ob'yekti sohalari: institutsional (davlat, partiya, NNT, saylov tizimi, huquqiy normalar va sh.k.), noinstitutsional(individ, shxs, ijtimoiy guruh, aniq siyosiy hodisalar). Siyosiy tahlilning maqsadi nuqtai nazaridan talqini: tafakkur qilish - tahlilning asosiy maqsadi: Sodir bo'layotgan voqealaming mohiyatini aniqlash, voqealar ishtirokchilarining motivatsiyasini aniqlash, vaziyat bo'yicha taklif yoki fikr bildirish; siyosatga faol ta'sir o'tkazish - tahlilning maqsadi: siyosiy qarorlaming maqbulligi va samaradorligini ta'minlash.
M19	**Siyosiy tahlil jarayonining sub'yektlari.** Siyosiy tahlil sub'yekti tushunchasi. Siyosatchi. siyosiy ekspert. tahlilchilar, ekspertlar. texnologlar, maslahatchilar, partiya xodimlari, siyosatchilarining yordamchilari. M.Veber "Siyosat ham kasb, ham may! sifatida". L. Paining siyosiy tahlil sub'yektlari tasnifi. Siyosiy tahlilning dastlabki bosqichi (tahliliy tafakkur meta-tahlili, chiziqli va nochiziq tahliichilar). Siyosiy tahlil sohasida faoliyat ko'rsatayotgan davlat (hukumat vahukumatga yaqin tahliliy bo'linmalar) va nodavlat (foyda olishni ko'zlab faoliyat yuritadigan, universitetlar bazasida tuzilgan va foyda olishni ko'zJamaydigan) tuzilmalarJImiy tadqiqot institutlari, markazlar, fondlar, NNT, OAV va boshq. O'zbekistonda faoliyat ko'rsatayotgan siyosiy tahlil subyektlari tasnifi.

VII. Mashg'ulotlar shakli: Seminar mashg'uloti
7-semestr. Siyosiy tahlil VII. (40)

S1	"Siyosiy tahlil" fanining mazmuni, predmeti, maqsad va vazifalari.
S2	Tahlil: mohiyati, tavsifi va ta' rifi.
S3	Siyosiy tahlilning shakl lanishi va rivojlanishi.
S4	Siyosiy tahlil: mohiyati vaturlari.
S5	Siyosiy vaziyat tushunchasi, mohiyati vatasnifi.
S6	Siyosiy tahlilda qofllaniladigan umummantiqiy metodlar.
S7	Siyosiy tahlilning nazariy metodlari.
S8	Siyosiy tahlilning empirik metodlari.
S9	Siyosiy tahlildatizimli yondashuv uslublari.
S10	Siyosiy tahlilda ivent tahlil metodikasi.
S11	Siyosiy tahlilda kontent tahlil.
S12	Siyosiy tahlilda statistik metodlar.
S13	Siyosiy tahlilda qiyosiy uslubdan foydalanish.

S4	Siyosiy tahlilda kognitiv xaritalash uslubi.
S15	Siyosiy tahlilda modellashtirish uslubi.
S16	Siyosiy tahlilda ekspert baholash metodlari.
S17	Strategik tahlil va siyosiy jarayonlami prognoz qilish.
S18	Siyosiy tahlilning darajalari.
S19	Siyosiy tahlil jarayonining sub'yektlari.
S20	Siyosiy tahlilda siyosiy prognozlash usullari.

Mustaqil ta'limni bajarish bo'yicha talablar:
"Siyosiy tahlil" fani bo'yicha mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular vamustaqil ishlarning kalendar tematik rejasi

№	Mavzu nomi
1	Siyosiy tahlil tushunchasi. mohiyati va asosiy ta'riflari.
2	Siyosiy tahlil va bashoral fanining maqsadi va vazifalari.
3	Fanning ob'yekti va predmeti.
4	Siyosiy tahlil va bashorat fanining boshqa fanlar bilan aloqadorligi.
5	Siyosiy tahlilning farqli jihatlari.
6	Siyosiy tahlilning asosiy o'lchovlari.
7	Nazariy-fimdamental siyosiy tahlil.
8	Siyosiy holatning tahlili. "public policy" va "politics".
9	O'rta asrlarda va yangi davrda siyosiy tahlilning ildizlari.
10	Siyosiy tahlil yangi davrda.
11	Zamonaviy siyosiy tahlil va ilmiy bashorat.
12	XX asr 70-80-yillarida siyosiy tahlil va. ilmiy bashorat qilishning rivojlanishi.
13	AQSHda siyosiy konsalting. |
14	RAND Corporation - siyosiy tahlil va siyosiy maslahat berish bo'yicha yetakchi markazlardan biri sifatida.
15	Buyuk Britaniyada siyosiy konsalting.
16	Germaniyada siyosiy konsalting.
17	Siyosiy konsaltingni moliyalashtirish.
18	"Aqliy markazlar" - siyosiy tahlil va bashorat qilishning zamonaviy sub'yektlari sifatida.
19	Muayyan bir siyosiy muammoga tavsif berish.
20	Siyosiy tahlilda muammoning ko'lamini aniqlash.
21	Siyosiy muammoni tahlil qilish uchun shakllantirish.
22	Muammoni shakllantirish, tahlil qilish rejasini tuzish va manbalami aniqlash.
23	Siyosiy tahlilning sub'yektlari.
24	Siyosiy tahlilda faoliyatni rejalashtirish.
25	Ishonchli manbalar orqali ma'lumot qidirish.
26	Ma'lumotni saralash va qayta ishlash.
27	Siyosiy tahlilni o'tkazish bosqichlari.
28	Ekspert baholashi usuli.
29	Aqliy hujum usuli.
30	Breynstoming va uning bosqichlari.
31	Sinektika usuli.
32	Analogiya va uning turlari.
33	Deffi usuli va uning xususiyatlari.
34	Pattemusuli.
35	Siyosiy tahlilda so'rovlar o'tkazish.
36	Siyosiy tahlilda fokus-grupp usulini qo'llash.
37	Siyosiy tahlilda eksperiment usulini qo'llash.
39	Tizimli tahlilga tavsif. Tizimli tahlilning mohiyati. Tizimli tahliining o'ziga xosligi.
40	Tizimli tahlilning tuzilishi va prinsiplari. Tizimli tahlilning mexanizmi.
41	Siyosiy voqea-hodisa va jarayonlami modellashtirish: zaruriyat va nomuvofiqliklar.
42	Siyosiy tahlilda matematik modellashtirishni qo'llashning muammolari.
43	Siyosiy tahlilning biografik usuliga ta'rif
44	Siyosiy jarayonda biografik usulni qo'llash.
45	Biografik usulni qo'llashning ijobiy va salbiy jihatlari.

Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan referatlar tayyorlash va uni taqdimot qilish tavsiya etiladi.

"Siyosiy tahlil"fani bo'yicha mustaqil ta'lim mavzulari uning mazmunini yoritish maqsadida tanlangan va talabada shu haqida bilim ko'nikmasini shakllantirish nazarda tutilgan. siyosiy madaniyat, mafkura va antropologiyaning mazmuni, mohiyati, tasnifini, uning rivojlanishi, nazariyalari bir-biri bilan bog'liq jihatlar to'g'risida tasavvurga ega bo'lishi; siyosiy madaniyatning xulq-atvor jihati: shakllari va stereotiplar, siyosiy mafkura hokimiyat munosabatlarini aks ettiruvchi omil ekanligini, liberalizm va neoliberalizm, konservatizm va neokonservatizm, sotsial demokratiyaga doir xususiyatlarni bilishi va ulardan foydalana olishi; rivojlangan mamlakatlar siyosiy madaniyati, mafkurasini siyosiy tahlil qila oladi, hokimiyat va davlatning kelib chiqishi, antropologiyasi haqidagi bilimlar asosida mushohada yurita olish ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak.Ushbu mavzu haqida keyingi tadqiqotlar olib borgan ekspeditsiya faoliyati ham keng ma'lumotlar berib ular haqida ham o'quvchilar bilim ko'nikmasiga ega bo'ladi. Shu mazmunda MT da nazarda tutilgan mavzular haqida talabalar ish olib borishadi. Barcha keltirilgan mavzularni har biri to'g'risida talabalar qay tarzda o'zlashtirish, bilim ko'nikmasiga ega bo'lish mexanizmi fanning sillabusida ochib beriladi.

3.	**V. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)** Fanni o'zlashtirish natijasida talaba: - **"Siyosiy tahlil"** fanidan talabalar, ushbu davrda tarixiy tadqiqotlar ko'lami, davrning o'z dolzarb muammosini tadqiqotlarning metodologik asoslari haqida ***tasavvur va bilimga ega bo'lishi;*** - Talaba **"Siyosiy tahlil"** fanining alohida fan sifatida mavqyeiga ega bo'lishi, o'rganilayotgan davr va bugungi kun tarix fanining dolzarb muammolarini to'g'ri talqin qilish ***ko'nikmalariga ega bo'lishikerak***. - Talaba o'zlashtirayotgan fan bo'yicha egallagan bilimlarini tahlil qilish to'plangan tarixiy tajribani ilmiy va pedagogik amaliyotda samarali qo'llash ***malakalariga ega bo'lishikerak***.
4.	**VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:** • ma'ruzalar;

	• interfaol keys-stadilar; • *munozara,* • *o'z-o'zini nazorat.* • "Aqliy hujum", • "Muammo"; • Krossvord • Annogrammalar • Ko'chma dars mashg'ulotlari
5.	**VII. Kreditni olish uchun talablar:** Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'liq o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy nazorat shakllari, hamda mustaqil ta'limda berilgan vazifa topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat ishini topshirish

	Asosiy adabiyotlar
A1.	Семенова В.А. Политический анализ и прогнозирование - Москва: Издательст во Юрайт, 2021. 433 с.
	Туронок С.Г. "Политический анализ и прогнозирование.
	Богатуров А.Д. - Международно-политический анализ - "Аспекг Пресс", 2019. 208с.
	Tavsiya qilinadigan qo'shimcha adabiyotlar
Q1.	Балуев Д. Введение в политический анализ Д. Балусв. - Н.Новгород, 2000.
Q2.	НАкофф Р. Искусство принятия решений. М., 2002. 253 стр.
Q3.	Dahl R. Modem Political Analysis. Englewood Clifls, NJ., 2013.
Q4.	Dunn W. Public Policy Analysis: AnIntoduction. Englewood Glifls, N.J., 2011.
Q5.	Manheim J., Rich R. Empirical Political Analysis: Research Methods in Political in Political Science. N.Y., 2011. P. 349
Q6.	**Axborot manbalari**
Q7.	www.prezident.uz -O'zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti
A1	www.prezident.uz-O'zbekistan Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti
A2	www.gov.uz - O'zbekistan Respublikasi hukumat portali.
A3	www.lex.uz-O'zbekistan Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi.
A4	www.natlib.uz-Alisher Navoiy nomidagi O'zbekistan Milliy kutubxonasi
8.	Fan dasturi Samarqand davlat universiteti O'quv uslubiy Kengashining 2024 yil "___" dagi 1-son bayonnomasi bilan ma'qullangan.

9.	**Fan/modul uchun mas'ul:** Raximova M.-Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti, Psixologiya va ijtimoiy siyosiy fanlar fakulteti, "Falsafa va milliy g'oya" kafedrasi dotsenti
10.	**Taqrizchilar:** - Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti, Psixologiya va ijtimoiy siyosiy fanlar fakulteti, "Falsafa va milliy g'oya" kafedrasi PhD F.Ko'chimova M.Musayev – Respublika ma'naviayat va marifat markazi huzuridagi ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar instituti, S.F.d, prof.

Universitetning 2024-yil 16- avgustdagi 301-ij buyrug'i asosida
Fan dasturlari va mustaqil ta'lim topshiriqlarini ishlab chiqishga ma'sul ishchi guruhi:

Rais – M.Normamatova

Falsafa va milliy g'oya kafedra mudiri **prof. A.Samadov**

Psixologiya va ijtimoiy-siyosiy fanlar fakulteti dekani **prof. A.Q. Aymatov**

SamDU o'quv ishlari bo'yicha prorektor **prof. A.Soleev**

"FALSAFA VA MILLIY G'OYA" KAFEDRASIDA O'TILADIGAN "SIYOSIY TAHLIL" FANIDAN TUZILGAN FAN DASTURIGA

TAQRIZ

"Siyosiy tahlil" fan dasturida talabalarda qadimgi dunyodan hozirgi davrgacha evolyusion tarzda rivojlanayotgan siyosat, unga doir asosiy konsepsiyalar bilan tanishtirish orqali ochib berilgan.

Fan dasturida fanning vazifasi – jahon siyosiy tafakkurida iqtisodiy fikrlarning paydo bo'lishi va rivojlanishi bosqichlari ya'ni: qadimgi dunyoning turli mintaqalarida iqtisodiy fikrlarning kelib chiqishi va rivojlanishi; o'rta asrlar va uyg'onish davridagi iqtisodiy fikrlarning tafakkur rivojlanishining asosiy yo'nalishlarini, buyuk mutafakkirlarning qarashlarini yoritish; yangi zamondagi siyosiy ta'limotlarning ijtimoiy hodisalarni bilishdagi o'rni, roli va ahamiyatini tushuntirish; eng yangi zamondagi iqtisodiy siyosiy qarashlar, maktablar qaror topishi va rivojlanishining asosiy yo'nalishlari, ularning o'ziga xos xususiyatlarini ochib berilgan.

Talabalarning istiqbolda davlat va siyosat sohalarida tadqiqotlarni rivojlantirish va umumjahon siyosiy tamoyillarini baholay olish qobiliyatini egallashi uchun jahon iqtisodiy ta'limotini rivojlanishiga hissa qo'shgan mutafakkirlarning vakillari tomonidan ishlab chiqilgan siyosatga oid nazariyalarni mustaqil ravishda tahlil etish ko'nikmalarini shakllantirish; talabalarni fanni rivojlantirishga oid tahlil qilish va tizimli yondashuvga o'rgatish.tafakkur tarzining ko'rinishlari, ularning dolzarb muammolari va ilmiy tafakkur tarzining mohiyati xususida chuqur bilim olish, hamda ularda o'z-o'zini anglash va to'g'ri fikrlash mahorati, ko'nikma va malakalarini shakllantirishdan iborat. Yaratilgan fan dasturi oliy ta'lim tizimida bakalavr bosqichi talabalari uchun o'tilagan "Siyosiy tahlil" fanining mazmuni va o'tilishi tartibini, talabalar tomonidan o'zlashtirilishi lozim bo'lgan bilim hamda ko'nikmalar hajmini belgilab beradigan rasmiy pedagogik hujjat hisoblanadi.

"Siyosiy tahlil" fanidan tayyorlangan fan dasturi mazmunan va tuzilishi jihatidan OTM fan dasturlariga qo'yilgan talablarga javob beradi deb hisoblayman va uni barcha ta'lim yo'nalishlari talabalari uchun ta'lim jarayonida foydalanishga tavsiya etaman.

"Falsafa va milliy g'oya" kafedrasi ass. PhD F.Ko'chimova

SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI, PSIXOLOGIYA VA IJTIMOIY SIYOSIY FANLAR FAKULTETI, "FALSAFA VA MILLIY G'OYA" KAFEDRASINING "SIYOSIY TAHLIL" FANIGA TAYYORLANGAN FAN DASTURIGA

TAQRIZ

"Siyosiy tahlil" fan dasturida talabalarda qadimgi dunyodan hozirgi davrgacha evolyusion tarzda rivojlanayotgan siyosat, unga doir asosiy konsepsiyalar sharhi orqali ochib berilgan.

Fan dasturida fanning vazifasi-jahon siyosiy tafakkurida fikrlarning paydo bo'lishi va rivojlanishi bosqichlari ya'ni: qadimgi dunyoning turli mintaqalarida siyosiy fikrning kelib chiqishi va rivojlanishi; o'rta asrlar va uyg'onish davridagi siyosiy tafakkur rivojlanishining asosiy yo'nalishlarini, buyuk mutafakkirlarning qarashlarini yoritish; yangi zamondagi iqtisodiy ta'limotlarning ijtimoiy hodisalarni bilishdagi o'rni, roli va ahamiyatini tushuntirish; eng yangi zamondagi siyosiy qarashlar, maktablarni qaror topishi va rivojlanishining asosiy yo'nalishlari, ularning o'ziga xos xususiyatlarini ochib berilgan.

Talabalarning istiqbolda davlat va siyosat sohalarida tadqiqotlarni rivojlantirish va umumjahon iqtisodiy tamoyillarini baholay olish qobiliyatini egallashi uchun jahon siyosiy ta'limotini rivojlanishiga hissa qo'shgan mutafakkirlarning vakillari tomonidan ishlab chiqilgan siyosatga oid nazariyalarni mustaqil ravishda tahlil etish ko'nikmalarini shakllantirish; talabalarni fanni rivojlantirishga oid tahlil qilish va tizimli yondashuvga o'rgatish.tafakkur tarzining ko'rinishlari, ularning dolzarb muammolari va ilmiy tafakkur tarzining mohiyati xususida chuqur bilim olish, hamda ularda o'z-o'zini anglash va to'g'ri fikrlash mahorati, ko'nikma va malakalarini shakllantirishdan iborat.

"Siyosiy tahlil" fanidan tayyorlangan fan dasturi mazmunan va tuzilishi jihatidan OTM fan dasturlariga qo'yilgan talablarga javob beradi deb hisoblayman va uni barcha ta'lim yo'nalishlari talabalari uchun ta'lim jarayonida foydalanishga tavsiya etaman.

Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi huzuridagi Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar boshlig'i, siyosiy fanlari

M.Musayev